



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z. Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI



Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

RANCH universiteti,

“Iqtisodiyot” kafedrası v.b. dotsenti, PhD

ORCID: 0009-0000-0695-1702

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy o'sish va ichki bozorni kengaytirish imkoniyatlariga ta'siri yoritilgan. Kambag'allikning kelib chiqish sabablari umumiy, institutsional, mintaqaviy va sinfiy kambag'allik turlari orqali tahlil qilinadi. Mutlaq va nisbiy kambag'allik tushunchalari ajratib ko'rsatilgan hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri muhokama etiladi. O'zbekistonda minimal iste'mol xarajatlari va kambag'allik darajasini hisoblash tartibi bayon etilgan. Kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va ichki bozorni kengaytirish imkoniyatlarini oshirishi asoslab berilgan. Maqolada ijtimoiy himoya dasturlari hamda iqtisodiy rivojlanish loyihalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ta'lim va malaka oshirishni rivojlantirish, iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, umumiy kambag'allik, institutsional kambag'allik, mintaqaviy kambag'allik, sinfiy kambag'allik, minimal iste'mol xarajatlari, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, nisbiy kambag'allik, investitsiyalarni jalb qilish.

Abstract. This article examines the impact of poverty reduction on economic growth and the expansion of the domestic market. The causes of poverty are analyzed through general, institutional, regional, and class-based forms of poverty. The concepts of absolute and relative poverty are distinguished, and their social and economic effects are discussed. The methodology for calculating minimum consumption expenditures and poverty levels in Uzbekistan is presented. It is substantiated that poverty reduction stimulates economic growth and enhances opportunities for domestic market expansion. The article analyzes social protection programs and economic development projects. In addition, proposals aimed at poverty reduction are offered, including the development of education and skills training, support for economic development projects, improvement of healthcare services, and ensuring social equity.

Key words: poverty, general poverty, institutional poverty, regional poverty, class-based poverty, minimum consumption expenditures, social stability, economic growth, relative poverty, investment attraction.

Аннотация. В статье рассматривается влияние сокращения бедности на экономический рост и расширение внутреннего рынка. Причины возникновения бедности анализируются через призму общей, институциональной, региональной и классовой бедности. Выделяются понятия абсолютной и относительной бедности, а также обсуждаются их социально-экономические последствия. Освещается порядок расчёта минимальных потребительских расходов и уровня бедности в Узбекистане. Обосновано, что сокращение бедности способствует стимулированию экономического роста и расширению внутреннего рынка. В статье анализируются программы социальной защиты и проекты экономического развития. Также представлены предложения по сокращению бедности, включая развитие образования и повышения квалификации, поддержку экономических проектов, улучшение системы здравоохранения и обеспечение социальной справедливости.

Ключевые слова: бедность, общая бедность, институциональная бедность, региональная бедность, классовая бедность, минимальные потребительские расходы, социальная стабильность, экономический рост, относительная бедность, привлечение инвестиций.



KIRISH

Ushbu maqolada kambag'allik muammosi, uning turlari hamda O'zbekistondagi hozirgi holati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kambag'allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allik darajasini qisqartirish borasida izchil va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mazkur masala hali ham dolzarb bo'lib, uni chuqur ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish zaruratini saqlab qolmoqda.

Tadqiqot doirasida kambag'allikning umumiy, institutsional, mintaqaviy va sinfiy turlari atroflicha ko'rib chiqiladi. Umumiy kambag'allik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasining yetarli emasligi bilan tavsiflansa, institutsional kambag'allik resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar bilan izohlanadi. Mintaqaviy kambag'allik tabiiy-iqlim sharoitlari hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lsa, sinfiy kambag'allik asosan shaxsiy omillar, jumladan, ta'lim darajasi va mehnat bozorida raqobatbardoshlikning pastligi bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, maqolada kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar, jumladan, ijtimoiy himoya dasturlari va iqtisodiy rivojlanish loyihalarining ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud strategiyalarni baholash hamda kelgusida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida aholi daromadlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatda kambag'allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni [1], 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-sonli Farmoni [2], 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish hamda samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–347-sonli qarori [3], 2024-yil 20-yanvardagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [4], shuningdek, 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [5] ushbu sohada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar va ustuvor yo'nalishlar kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, ushbu maqola doirasidagi tahlillar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, kambag'allikni qisqartirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining rolini oshirish masalalarini o'rganishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy va qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikning kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra uni umumiy, institutsional, mintaqaviy va sinfiy kambag'allik turlariga ajratish mumkin. Umumiy kambag'allik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Institutsional kambag'allik esa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar doirasida resurslarning turli jamoalar, mintaqalar, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasida nomutanosib taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi hamda ayrim guruhlarning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Mintaqaviy kambag'allik og'ir tabiiy-iqlim sharoitlari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lib, mazkur hududlarda yashovchi aholining turmush sharoitlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sinfiy kambag'allik esa ayrim shaxslar, oilalar yoki ijtimoiy guruhlarning jismoniy tayyorgarligi va ta'lim darajasi yetarli emasligi, oiladagi mehnat resurslarining cheklanganligi, ishlab chiqarish vositalari hamda ijtimoiy munosabatlardan foydalanish imkoniyatlarining pastligi bilan tavsiflanadi.



Kambag'allik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda asosan ikki yo'nalishda, ya'ni mutlaq va nisbiy kambag'allik shakllarida talqin etiladi. Mutlaq kambag'allik yashash uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarni qondirish imkoniyatining yetishmasligi, ya'ni asosiy hayotiy ehtiyojlarni ta'minlash darajasining pastligi bilan izohlanadi [6]. Nisbiy kambag'allikda esa aholi oziq-ovqat va kiyim-kechak kabi asosiy ehtiyojlarini qondira olgan bo'lsa-da, turli ijtimoiy guruhlar va hududlar o'rtasida daromadlar tafovutining mavjudligi kuzatiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha dunyoning ayrim mamlakatlarida faoliyat olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlari 1-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi hamda ularning kambag'allikni qisqartirish jarayonidagi amaliy ahamiyati baholanadi (1-jadval).

1-jadval. Kambag'allik tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar¹

Iqtisodchi olimlar va muallif	Kambag'allik haqidagi ta'riflar
A. Sen	Kambag'allik insonlarning imkoniyatlari hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishdagi cheklovlar bilan bog'liq holat sifatida talqin etiladi.
T. Piketty	Kambag'allik iqtisodiy tengsizlik va boylikning jamiyatda notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi.
R. Layard	Kambag'allik insonlarning hayot sifati pasayishiga olib keluvchi omillar, jumladan, psixologik holat, stress va ruhiy bosimlar bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida izohlanadi.
K. Schwab	Kambag'allik iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik o'rtasida muvozanatning yetarli darajada ta'minlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan muammo sifatida baholanadi.
Y. Noda	Kambag'allik ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi.
W. Hui	Kambag'allik urbanizatsiya va iqtisodiy o'sish jarayonlari fonida ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi bilan bog'liq holat sifatida namoyon bo'ladi.
Muallif ta'rifi	Kambag'allik — aholi yoki alohida shaxsning asosiy hayotiy ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslarning yetarli emasligi bilan tavsiflanadigan holatdir.

Kambag'allikni qisqartirishning obyektiv zarurligi bir qator muhim omillar bilan izohlanadi. Avvalo, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan kambag'allik darajasining pasayishi jamiyatda ijtimoiy muammolar yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi va davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash jihatidan kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Aholining xarid qobiliyatining oshishi ichki bozorni kengaytirish, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish hamda bandlikni mustahkamlash imkonini yaratadi. Uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilish nuqtayi nazaridan kambag'allik darajasining pasayishi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi hamda barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kambag'allik darajasini aniqlashning asosiy mezon sifatida minimal iste'mol xarajatlari ko'rsatkichi qabul qilingan. Mazkur ko'rsatkich ilk bor 2021-yilda 440 ming so'm miqdorida belgilangan bo'lib, 2022-yil yanvar oyidan boshlab 498 ming so'm etib tasdiqlangan. Keyingi yillarda ushbu miqdor bosqichma-bosqich oshirib borildi: 2023-yil iyul oyida 498 ming so'mdan 568 ming so'mgacha, 2024-yil yanvar oyida esa 568 ming so'mdan 621 ming so'mgacha yetkazildi [7]. Hozirgi kunda, ya'ni 2025-yil yanvar oyidan boshlab minimal iste'mol xarajatlari miqdori 669 ming so'mni tashkil etmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda aholi uchun iste'mol xarajatlarning kambag'allikni belgilovchi minimal darajasi AQSh dollarida hisoblanganda oyiga 48,9 dollardan 51 dollargacha yangilandi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yil boshidan buyon ikkinchi marotaba oshirilgan bo'lib, bu asosan gaz va elektr energiyasi narxlarining o'zgarishi bilan izohlanadi [8].

"Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, birinchidan, mazkur nizom aholining real iste'mol xarajatlari, ularning xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqqan holda minimal iste'mol xarajatlari qiymati hamda kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilaydi. Ikkinchidan, ushbu nizom Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, FAO hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini aniqlash bo'yicha berilgan xalqaro tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan [9] (1-rasm).

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-rasm. Minimal iste'mol xarajatlarning kambag'allik bilan bog'liqligi²

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, minimal iste'mol xarajatlari va kambag'allik darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Minimal iste'mol xarajatlari aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan eng kam moliyaviy mablag'lar miqdorini ifodalaydi hamda kambag'allik chegarasini aniqlashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi. Mazkur ko'rsatkichning o'zgarishi kambag'allik darajasini baholash va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda kambag'allik muammosi, uning asosiy turlari hamda O'zbekistondagi hozirgi holati kompleks tarzda tahlil qilindi. Kambag'allik iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy va psixologik jihatlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allik darajasini qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishilgan bo'lsa-da, mazkur masala hali ham ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot doirasida kambag'allikning umumiy, institutsional, mintaqaviy va sinfiy turlari tahlil qilinib, ularning kelib chiqish sabablari hamda o'zaro bog'liqligi aniqlab berildi. Olingan natijalar kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatdi hamda ushbu jarayonda kompleks va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

–ijtimoiy himoya dasturlarini yanada kuchaytirish zarur. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun mo'ljallangan dasturlarni kengaytirish va ularning manzilliligini oshirish kambag'allik darajasini barqaror kamaytirishga xizmat qiladi;

–ta'lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Aholi, ayniqsa, yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ta'lim va kasbiy tayyorlov dasturlarini joriy etish barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi;

–iqtisodiy rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish lozim. Investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish va hududiy iqtisodiy loyihalarni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi;

–sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini yaxshilash zarur. Aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar uchun sifatli va qulay tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ularning mehnat salohiyatini oshiradi;

–ijtimoiy tenglikni ta'minlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tengligi, teng imkoniyatlar va ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash kambag'allikni qisqartirish jarayonining barqarorligini oshiradi.

Mazkur takliflar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kambag'allikni samarali bartaraf etish ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyundagi "2022–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6052527>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 735-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7851758>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevraldagi "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari to'g'risida"gi 77-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7387486?ONDATE=19.05.2025%2000>

² Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4776669?ONDATE=13.06.2023>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – 11 b.
7. Jumayev O. Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati // "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" jurnali. – 2024-yil, may. – 15 b.
8. Salimov Sh. Kambag'allik va uni O'zbekistonda baholashga yondashuvlar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021. – 35–39 b.
9. Husanova H.T. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish tendensiyalari // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. – 2020-yil. – 15–21 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti: www.stat.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligining rasmiy sayti: www.uzstat.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazining rasmiy sayti: www.ceep.uz
13. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>
14. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti: www.xorazmstat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
